TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MADRIMOV XUSHNUD KUVANDIKOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH BILAN BOG‘LIQ MA’MURIY NIZOLARNI SUDDA KO‘RISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 346.2(043.5)(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Madrimov Xushnud Kuvandikovich
O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishni takomillashtirish 3

Madrimov Khushnud Kuvandikovich
Improvement of judicial trial of administrative disputes related to protection of the rights and legal interests of business entities in the Republic of Uzbekistan 25

Мадримов Хушнуд Кувандикович
Совершенствование судебного рассмотрения административных споров, связанных с защитой прав и законных интересов субъектов предпринимательства в Республике Узбекистан 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 53

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MADRIMOV XUSHNUD KUVANDIKOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISH BILAN BOG‘LIQ MA’MURIY NIZOLARNI SUDDA KO‘RISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu920-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nematov Jo‘rabek Nematilloyevich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Otaxonov Foziljon Xaydarovich** yuridik fanlar doktori, professor
	Shayzakov Shodiyar Ibragimovich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-iyul kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1404-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 23-iyun kuni tarqatildi.
(2025-yil 23-iyundagi 26-son reyestr bayonnomasi).

R.R.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B.Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

I.R.Bekov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (DISSERTATSIYA ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yillarda huquq ustuvorligi darajasi pasayib bormoqda. Xususan, Jahon odil sudlov loyihasi (World Juctice Project) tashkilotining 2023-yilgi hisobotiga ko‘ra, “2016-yildan buyon qonun ustuvorligi retsessiyasi davom etib, 78 foiz davlatda pasayish kuzatilgan”[1]. Yana bir nufuzli tashkilot – Economist Intelligence Unitning 2022-yilgi hisobotida ham “o‘rganilgan 167 ta davlatning yarmidan ko‘pida demokratiya darajasi pasaygani yoki turg‘unligi ta’kidlangan. Ayniqsa, so‘nggi yetti yilda davlat organlari vakolatlarini cheklash ko‘rsatkichi 74 foiz mamlakatda tushib ketgani”[2] – ijro idoralari ustidan boshqa nazorat turlari bilan birga sud nazorati ham susayganini anglatadi va bu tadqiqot mavzusining xalqaro miqyosda ham dolzarbligini ko‘rsatadi. 2024-yilda ham ushbu salbiy tendensiya davom etgan. Shu bilan birga, mazkur hisobotda 2016-yildan boshlab huquq ustuvorligini mustahkamlab kelayotgan va uzoq muddatli istiqbolda ushbu global tendensiyalarga eng ko‘p qarshi tura oladigan beshta davlatdan biri sifatida O‘zbekiston qayd etilgan. Bu esa ma’muriy sud ish yurituvi sohasidagi islohotlarimizni mantiqiy davom ettirib, ilg‘or tajriba va standartlarni izchil joriy qilishni taqozo etadi.

Jahonda sud, kvazisudlov idoralari kabi huquqiy institutlar rolini oshirish, ayniqsa ijro idoralari ustidan sud nazoratini kuchaytirish, ma’muriy sudlar va ma’muriy organlar vakolatlarini aniqlashtirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, sudning faol ishtiroki, sudga taalluqlilik, isbotlash majburiyati, ma’muriy da’vo, sudning qarori bilan bog‘liq turli masalalar tadqiqotning muhim yo‘nalishlari sifatida o‘rganilmoqda[3].

Mamlakatimizda tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolar bo‘yicha statistika bu masalani alohida o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, ma’muriy sudda ko‘rilgan jami ommaviy nizolar soni 2024-yilda (15 369 ta) 2020-yilga (15 066 ta) nisbatan 2 foizga ko‘paygan bo‘lsa, tadbirkor arizasi bo‘yicha ko‘rilgan ishlar 2020-yildagi 1 391 tadan 2024-yilda 4 757 taga, ya’ni 3,4 barobarga (3 366 taga) oshgan[4]. Keyingi 6 yillik amaliyot tahlili ko‘rsatdiki, ma’muriy sud ish yurituvi to‘liq joriy etilmagani bilan bog‘liq muammolar yuzaga chiqmoqda. Xususan, ma’muriy nizo tushunchasi ishlab chiqilmagani, taalluqlilikda ma’muriy nizoning o‘ziga xosliklari inobatga olinmagani, ma’muriy sud ish yurituvi prinsiplari va ishtirokchilari doirasi, da’vo instituti to‘liq belgilanmagani sababli tadbirkorlar ishtirokidagi ommaviy nizolar ma’muriy sud bilan birga iqtisodiy sudda ko‘rilmoqda. Aslida, ma’muriy sud yangi institut bo‘lib, muammolar yuzaga kelishi prognoz qilingan holat edi. Mazkur holat 2016-2017-yillarda chuqur ilmiy ishlangan, amaliyot va nazariya chegarasidagi muammolar yechimini ko‘rsatadigan tadqiqotlar bo‘lmagani bilan ham izohlanadi. Yuqoridagi holatlar inobatga olinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021-yil 6-noyabrdagi nutqida “ma’muriy sudlar faoliyatini takomillashtirish haqida topshiriq berildi”[5]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida[6]

[1] worldjucticeproject.org/news/wjp-rule-law-index-2023-global-press-release.
[2] eiu.com/n/compaigns/democracy-index-2022/.
[3] Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.
[4] stat.sud.uz/assets/uploads/administrative/pdf/adm-2024-full.pdf.
[5] president.uz/uz/lists/view/4743.
[6] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, lex.uz/docs/6600413.

davlat organlari ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish ustuvor maqsad etib belgilangani ham mavzu dolzarbligini oshiradi. Yana bir jihat – sovet davrida va undan keyin ham tadbirkor ishtirokidagi ma’muriy nizo kam o‘rganilgan. Chunki, rejali iqtisodiyotda sof tadbirkorning o‘zi bo‘lmagan va faqat bozor munosabatlari kirib kelgandan keyin ularning huquqini ma’muriy organdan himoyalash masalasi dolzarb bo‘lishni boshlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–4850-sonli, 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–11-sonli farmonlari, 2022-yil 29-yanvardagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta’minlash hamda aholining sudlarga bo‘lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–107-sonli, 2025-yil 30-yanvardagi “Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–33-sonli qarorlari va mavzuga oid boshqa qonunchilik hujjatlarini hayotga tatbiq etishga dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi asosida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish masalalari milliy olimlarimiz tomonidan kam tadqiq etilgan. Mavjud tahlillar asosan umumiy yondashuvga asoslangan.

O‘zbekistonlik olimlar E.T.Xojiyev, G‘.T.Xakimov, J.N.Nematov, L.B.Xvan, A.A.Li, I.A.Xamedov, I.M.Say, Sh.I.Shayzakov, D.R.Artikov, M.U.Eshimbetov va Sh.B.Bakaev ma’muriy yustitsiyaning turli jihatlarini ilmiy tadqiq qilgan. Xususan, E.T.Xojiyev ma’muriy jarayon, ma’muriy ish yuritish, G‘.T.Xakimov, I.A.Xamedov, I.M.Say ma’muriy yustitsiyani rivojlantirish, ma’muriy protsess, J.N.Nematov ma’muriy akt, ma’muriy nizo taalluqliligi, L.B.Xvan ma’muriy akt, ma’muriy yustitsiya tarixi va prinsiplari, A.A.Li ruxsat etish tartib-taomillari, Sh.I.Shayzakov ma’muriy sud ish yurituvida prokuror ishtiroki, D.R.Artikov idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga oid ishlarni sudda ko‘rish, M.U.Eshimbetov ma’muriy organ qaroridan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rish, Sh.B.Bakaev ma’muriy sudlar ishining tashkiliy-huquqiy masalalarini o‘rgangan.

MDHda mavzuning ayrim jihatlari Ye.B.Luparev, Yu.N.Starilov, A.B.Zelensov, V.V.Skitovich, N.G.Kiper, A.N.Artamonov, N.V.Suxareva, O.V.Chumakova, I.M.Divin, S.Karimov, A.B.Gabbasov, S.I.Ibragimov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, xorijiy davlatlarda Y.Pudelka, L.Broker, V.Raymers, Y.Deppe, P.Kvosta, K.Xinterberger, F.Xufen, K.Dreksel, M.P.Sinx, J-M.Ponte, Yu.Paujayte-Kulvinskene, V.Kruminya, R.Melnik va boshqalar tadqiqotlar olib borgan.

Lekin, O‘zbekistonda ma’muriy sud tashkil etilgandan keyingi davrdagi ilmiy muammolar, qonunchilik va amaliyot tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarni ko‘rib chiqishni takomillashtirish, mazkur nizolarni ko‘rib chiqish jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribani samarali joriy etish nuqtayi nazaridan monografik tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2021-2023-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolar tushunchasi va o‘ziga xos belgilarini tahlil qilish;

ushbu ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishning rivojlanish tarixini o‘rganish;

sudning faol ishtiroki prinsipini ma’muriy sud ish yurituvining o‘ziga xos prinsipi sifatida tadqiq etish;

tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolar sudga taalluqliligining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

isbotlash majburiyatining ilmiy-amaliy jihatlarini tadqiq etish;

sudning hal qiluv qarori va uni ijroga qaratish masalalarini o‘rganish;

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini sud orqali qo‘llash tartibini tahlil qilish;

amaliyotda keng tarqalgan, xususan yer va soliqqa oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish bilan bog‘liq ayrim muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini tadqiq etish;

tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishning sud tartibini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

ma’muriy sud ish yurituvini takomillashtirishning ayrim masalalari, jumladan sudlovga taalluqlilik, ma’muriy sudda zararni qoplash, isbotlash, sudning faol ishtiroki prinsipini joriy etish bilan bog‘liq ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish bilan bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarixiy, formal yuridik, tizimli va kompleks yondashuv, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy tahlil, induksiya, deduksiya, sotsiologik so‘rov o‘tkazish, statistikani tahlil qilish, sud amaliyotini o‘rganish va ilmiy prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorning ma’muriy akt noqonuniyligi va unga sababiy bog‘lanishdagi zararni undirish haqidagi talablarini keltirib chiqargan asos ayni bir qaror (harakat, harakatsizlik) ekanligi sababli ushbu ikkita talabni ma’muriy sudda birgalikda ko‘rish zarurligi asoslantirib berilgan;

tadbirkorlik subyektiga nisbatan ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha so‘zsiz undiriladigan ijro hujjati ustidan shikoyat qilishga doir ishlar ma’muriy sudga taalluqli ekanligi asoslangan;

ma’muriy sud ish yurituvini sudning faol ishtiroki prinsipi asosida amalga oshirish lozimligi asoslantirib berilgan;

ma’muriy sud ish yurituvida isbotlashning o‘ziga xosligidan, jumladan taraflarning imkoniyati teng bo‘lmaganligidan kelib chiqib, isbotlash majburiyati qaror qabul qilgan ma’muriy organga yuklatilishi asoslantirilgan;

ma’muriy sud ish yurituviga oid qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqib, unda ma’muriy nizo taalluqliligini yanada aniqlashtirish va ma’muriy da’vo turlarini belgilash shartligi asoslangan;

tadbirkorlik subyektiga nisbatan soliq organi qarori ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga shikoyat qilish bo‘yicha cheklovni bekor qilish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalarini quyidagilar tashkil qiladi:

sudning faol ishtiroki prinsipi mazmunini kengaytirib, sud taraflarga kamchiliklarni bartaraf etish, o‘z talablarini aniqlashtirish va boshqa materiallarni taqdim etishda ko‘maklashishi zarurligi asoslantirilgan;

ma’muriy organ va tadbirkor o‘rtasidagi ommaviy nizolarning mazmuni ularning barchasini iqtisodiy sudda emas, balki ma’muriy sudda ko‘rishni taqozo etishi yer, soliq va bojxona nizolari bilan asoslantirib berilgan;

ham ma’muriy, ham iqtisodiy sudga taalluqli, o‘zaro bog‘liq bir nechta talabni birlashtirish va barchasini ma’muriy sudda ko‘rish taklifi tayyorlangan;

tadbirkorlarga qo‘llanadigan huquqiy ta’sir choralarini iqtisodiy suddan ma’muriy sudga, ayrimlarini ma’muriy organga o‘tkazish asoslangan;

ma’muriy aktni haqiqiy emas deb topish da’vosi bilan birga, uni bekor qilishga oid shikoyatni ham ma’muriy sudda ko‘rish zarurligi asoslangan;

tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarda ma’muriy organ ham da’vogar bo‘lishi mumkinligi haqida taklif ishlab chiqilgan;

barcha dalillar o‘rganilgandan keyin ham, muayyan holatni isbotlash imkoni bo‘lmasa, isbotlanmaganlikning salbiy oqibati bu holatni isbotlash majburiyati yuklatilgan tarafda bo‘lishi haqida taklif tayyorlangan;

tadqiqot doirasidagi takliflarning amalga oshirilishi ma’muriy va iqtisodiy sudlar tuzilmasida jiddiy o‘zgartirishlarga olib kelishi, keyinchalik kvazisudlov tizimiga ham ta’sir etishi ko‘rsatib berilgan;

Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks (keyingi o‘rinlarda – MSIYutK) 11, 26, 27, 28, 40, 67, 185, Iqtisodiy protsessual kodeks (keyingi o‘rinlarda – IPK) 25, Yer kodeksi 36, Soliq kodeksi 14-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalari ishonchliligi. Ilmiy ishda foydalanilgan metod, ilmiy-nazariy yondashuv, statistika va sud amaliyotidan misollar rasmiy manbalardan olingani,

belgilangan talablarga ko‘ra havola qilingani, milliy qonunchilik va xorijiy tajriba qiyosiy o‘rganilgani, amaliyot tahlili, sotsiologik so‘rov asosida nazariy xulosa va takliflar tayyorlangani, dissertatsiya dastlabki natijalari amaliyotga joriy qilingani va vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangani, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy, chet el nashrlarida e’lon qilingani tadqiqot xulosalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalardan ma’muriy huquq sohasida tadqiqotlarni olib borish, “Ma’muriy huquq”, “Ma’muriy sud ish yurituvi” va “Tadbirkorlik huquqi” kabi fanlarni o‘qitish hamda metodik tavsiyalar tayyorlash uchun foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, mavzuni o‘rganish yakunida tayyorlangan amaliy taklif va tavsiyalardan qonunchilikni takomillashtirish, sud, boshqa davlat organlari va advokatura amaliyotida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalari joriy qilinishi. Mavzuni o‘rganish asosida:

ma’muriy sud ma’muriy aktni noqonuniy deb topish bilan birga unga sababiy bog‘lanishdagi zararni undirish masalasini ham hal qilishi haqidagi taklif MSIYutK 27-moddasini uchinchi va to‘rtinchi, 158-moddasini yettinchi qism bilan to‘ldirishda inobatga olingan (Qonunchilik palatasining 2023-yil 2-maydagi 04/2-10/1794-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif tadbirkorlarni ovora qilmasdan ikkita talabni bir sudda hal qilish uchun huquqiy asos bo‘lgan;

tadbirkorlik subyektiga nisbatan ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha so‘zsiz undiriladigan ijro hujjati ustidan shikoyat qilishga doir ishlar ma’muriy sudga taalluqli ekanligi haqidagi taklif MSIYutK 27-moddasi 1-qismini 8-band bilan to‘ldirishda inobatga olingan (Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 26-sentyabrdagi 01/q-08-54-sonli, Oliy sudning 2024-yil 23-sentyabrdagi 08/737-24-sonli dalolatnomalari). Mazkur taklif sudga taalluqlilikni ma’muriy nizoning mazmunidan kelib chiqqan holda belgilashga xizmat qilgan;

ma’muriy sud ish yurituvini sudning faol ishtiroki prinsipi asosida amalga oshirish haqidagi taklif MSIYutK 11-moddasining yangi tahririni ishlab chiqishda inobatga olingan (Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 26-sentyabrdagi 01/q-08-54-sonli, Oliy sudning 2024-yil 23-sentyabrdagi 08/737-24-sonli dalolatnomalari). Ushbu taklifni amalga oshirish natijasida ma’muriy sud ish yurituvining o‘z mazmuniga ko‘ra yangi, asosiy prinsiplaridan biri joriy etilgan;

isbotlash majburiyatini ma’muriy organga yuklatish haqidagi taklif MSIYutK 67-moddasi uchinchi qismining yangi tahririni ishlab chiqishda inobatga olingan (Qonunchilik palatasining 2023-yil 2-maydagi 04/2-10/1794-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif ma’muriy sud ish yurituvida teng bo‘lmagan taraflar o‘rtasida isbotlash yukini to‘g‘ri taqsimlashga xizmat qilgan;

ma’muriy sud ish yurituviga oid qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqib, unda ma’muriy nizo taalluqliligini yanada aniqlashtirish va ma’muriy da’vo turlarini belgilash haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi PF–11-sonli Farmoni 2-ilovasi 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy sudning 2023-yil 25-yanvardagi 08/43-23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifni amalga oshirish fuqarolik, iqtisodiy protsessual sud ish yurituvidan farq qiladigan ma’muriy sud ish yurituvining yanada takomillashuviga xizmat qilgan;

tadbirkorlik subyektiga nisbatan soliq organi qarori ustidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga shikoyat qilish bo‘yicha cheklovni bekor qilishga doir taklif Soliq kodeksi 231-moddasiga o‘zgartirish kiritishda inobatga olingan (Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 26-sentyabrdagi 01/q-08-54-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif tadbirkorlik subyektlarining sud himoyasidan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, xususan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi: Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini e’lon qilish tavsiya etilgan nashrlarida 7 ta maqola (6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tuzilishi kirish, 9 paragrafdan iborat uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, amaliy va nazariy muammolar, milliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilganligi, tadqiqot dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilganligi, aprobatsiyasi, natijalar e’lon qilinganligi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid ma’muriy nizolar: ilmiy-nazariy tahlil”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizo tushunchasi, belgilari, ularni sudda ko‘rishning tarixi, sudning faol ishtiroki prinsipi o‘rganilgan, ilmiy yondashuvlar tahlil etilgan (Y.Pudelka, J-M.Pont’e, F.Xufen, Ye.B.Luparev, A.B.Zelensov, N.G.Kiper, N.V.Suxareva, I.M.Divin, J.N.Nematov, G‘.T.Xakimov, E.T.Xojiyev, Sh.I.Shayzakov va boshqalar).

Dissertant olimlar fikrlari va qonunchilikni o‘rganib, **tadbirkorlar huquqini himoya qilishga oid ma’muriy nizo** deganda o‘zaro teng bo‘lmagan ishtirokchilar, ya’ni tadbirkorlar va ma’muriy organlar, hokimiyat vakolatiga ega boshqa subyektlar o‘rtasida ularning qarori (mansabdor shaxs harakati, harakatsizligi), hokimiyat vakolatini boshqacha amalga oshirishi oqibatida yuzaga keladigan, ma’muriy va boshqa ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoni tushunish haqidagi mualliflik fikrini bildiradi.

Ushbu tushuncha asosida **tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizoning qator belgilari** mavjudligi e’tirof etildi. Xususan, **subyektlarga doir belgi** – nizoda taraf sifatida tadbirkor va ma’muriy organ ishtirok etadi; **munosabatning xarakteriga doir belgi** – teng bo‘lmagan ishtirokchilar munosabati vertikal xarakterga ega bo‘ladi; **sohaga doir belgi** – nizo boshqaruv sohasida ma’muriy organ o‘z vakolatini amalga oshirishi oqibatida yuzaga keladi; **shikoyat predmetiga doir belgi** – odatda, individual ma’muriy akt, mansabdor shaxs harakati, harakatsizligi predmet bo‘ladi.

Mazkur barcha belgilarning aynan bir holatda bir vaqtda bo‘lishi eng asosiy talab bo‘lib, bitta belgining o‘zi yetarli emas.

Tadqiqotchi **tadbirkorlar huquqini himoya qilishga oid ma’muriy nizoning turlari** bo‘yicha olimlar fikrlarini tadqiq etib (Ye.B.Luparev, O.V.Chumakova, D.I.Zaxarova, J.N.Nematov), milliy qonunchilik tahlili asosida ularni quyidagicha tasniflashni taklif qiladi:

– tadbirkorlar huquqiga doir individual ma’muriy aktlar (mansabdor shaxs harakati, harakatsizligi) yuzasidan kelib chiqadigan nizolar;

– idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qiladigan organning tadbirkorlar huquqiga oid qarorlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar;

– ma’muriy organlarning investitsiya shartnomasi bilan bog‘liq qarorlari va harakatlariga (harakatsizligiga) doir investitsiya nizolari;

– raqobat munosabatidan kelib chiqadigan ommaviy xarakterdagi nizolar;

– ma’muriy organ va tadbirkorlar o‘rtasidagi ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa nizolar.

Shuningdek, yer, soliq, bojxona, standart, intellektual mulk, ekologiya va boshqaruv sohalarida ma’muriy organ o‘z vazifalarini amalga oshirishi natijasida xususiy shaxs bilan yuzaga keladigan nizolar tadbirkorlikka oid ma’muriy nizolarning alohida turlari sifatida ko‘rsatiladi.

Shu o‘rinda, muallif ma’muriy nizo va ma’muriy huquqbuzarlikning farqi bo‘yicha munozaraga kirishadi. Xususan, Ye.B.Luparev, O.V.Chumakova, D.I.Zaxarovaning ma’muriy huquqbuzarlik ma’muriy nizo ekani haqidagi fikriga qo‘shilmasdan, J.N.Nematovning ma’muriy huquqbuzarlikni jinoyat huquqiga yaqinroq turishi haqidagi yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi.

Dissertant hozirgi O‘zbekiston hududida tadbirkorlar ishtirokidagi **ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish tarixini quyidagi uch davr** doirasida o‘rganish taklifini ilgari surgan:

– sovet davriga qadar ushbu ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish institutiga o‘xshash bo‘lgan institutlarning yuzaga kelishi bosqichi;

– sovet davrida ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish instituti ayrim elementlarining shakllanishi bosqichi;

– mustaqillik davrida ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish institutining rivojlanishi bosqichi (xususan, 2017 yildan keyingi davr).

Sovet davriga qadar O‘zbekiston hududida hozirgi tushunchamizdagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish instituti bo‘lmasada, uning dastlabki ko‘rinishlari **qozi, mazalim, biylar** misolida ko‘rsatib berilgan. Xususan, davlat amaldorlari qoziga salbiy ta’sir qilish imkoniyatiga ega bo‘lganligi uchun, ommaviy nizolar mazalim tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Z.U.Muqimov, F.A.Muxitdinova, L.B.Xvan, Sh.I.Shayzakov kabi milliy olimlar, S.I.Ibragimov, R.S.Odinaev kabi tojikistonlik olimlar ishlari o‘rganilib, qozi, mazalim, biy institutlari ma’muriy sud ish yurituvining Markaziy Osiyo hududidagi o‘ziga xos ko‘rinishlari ekanligi yoritib berilgan.

Sovet davrining boshida 1917-yil mayda ma’muriy sudlar tashkil etilgan bo‘lsada, uning nizomi kuchga kirmagan. Bunda, davlat va xususiy shaxs o‘rtasida nizo mavjudligini tan olish sovet tuzumining kommunizm qurish g‘oyasiga zidligi sababli ma’muriy sud rivojlanmagan. Buni nemis olimi Y.Pudelka ham Germaniya

Demokratik Respublikasi misolida aytib o‘tgan. XX asr 60-yillarida ma’muriy shikoyat qilish institutini mustaqil ma’muriy huquq emas, balki fuqarolik protsessual qonunchiligi doirasida umumiy aks ettirish yo‘li davom ettirilgan. Shu asr 70-yillarida A.T.Bonner, V.T.Kvitkin, L.A.Nikolaeva, V.F.Sirenko kabi olimlar tomonidan davlat va xususiy shaxs o‘rtasida ham konflikt bo‘lishi haqida fikrlar ilgari surilib, 1977-yildagi sobiq Ittifoq Konstitutsiyasida fuqaroning davlat organi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi belgilangan. Lekin, amaliy qadamlar tashlanmagan. Qayta qurish davriga kelib, 1987-yil 30-iyun va 1989-yil 2-noyabrda bu normani amalga oshiradigan qonunlar qabul qilingan bo‘lsada, keyinchalik Ittifoqning qulashi ushbu rivojlanish nuqtalarining ahamiyatini tushirib yuborgan.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida bu nizolarni sudda ko‘rish tarixi **ikki bosqichga**, ya’ni **1991-2016-yillardagi** xo‘jalik sudi tizimidagi va **2017-yildan keyingi** ma’muriy sud tizimidagi bosqichlarga ajratib o‘rganilgan.

Jumladan, xo‘jalik sudlari ma’muriy sud tuzilgungacha O‘zbekistonda tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy sud ish yurituvining yaxlit tizimini tashkil etgan. Uning ildizi sovet davriga borib taqaladi. Xususan, 1979-yilda sud tizimiga kirmaydigan davlat arbitrajiga boshqaruv organlari qarorini nazorat qilish, 1988-yilda davlat korxonalari, 1990-yilda kooperativ kabi boshqa tadbirkorlarning bunday qarorlardan norozilik haqidagi shikoyatini ko‘rib chiqish vakolati berilgan. Bozor munosabatlari kirib kelgani sayin, davlat arbitraji o‘rniga arbitraj sudi tashkil etilib, tadbirkorlarning o‘zaro nizolari va davlat organi bilan nizolarini ko‘rib chiqqan.

O‘zbekistonda ham 1991-yil 20-noyabrda “Hakamlik sudi va xo‘jalik nizolarini hal etish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinib, ma’muriy sud ish yurituvining rivojiga xizmat qilgan. Tadbirkorlikka oid nizolarni hal qilishda xo‘jalik sudining o‘rni bu sohada katta nazariy va amaliy tajribaga ega olim F.H.Otaxonovning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan.

2017-yildan bugungi kunga qadar tadbirkorlarning ma’muriy nizolari ham iqtisodiy sud, ham ma’muriy sud tizimida ko‘rib kelinmoqda.

Tadqiqotchi 2010-yildan hozirgacha qonunchilik bo‘yicha turli xil ishchi guruh (komissiya)lardagi tajribasidan kelib chiqib, ma’muriy sud ish yurituvidagi islohotlarning amalga oshirilishi jarayonlarini bayon etgan.

Dissertant **tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishning o‘ziga xos xususiyatlari** bo‘yicha bildirilgan fikrlarni (M.P.Sinx, J-M.Ponte, A.V.Absalyamov, Ye.V.Slepchenko, I.M.Zaysev, V.V.Skitovich, Yu.A.Popova, M.3.Shvars, Yu.V.Yefimova) qiyosiy tahlil qilgan.

Tahlil natijasiga ko‘ra, tadbirkorlikka oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi sababli odil sudlovning mustaqil shakli bo‘lishi haqida to‘xtamga kelingan. Tadqiqotchi fikrini davom ettirib, MSIYutKdagi ayrim normalar oldingi fuqarolik va xo‘jalik protsessual qonunchilik ta’sirida shakllanganini undagi prinsiplar orqali ochib bergan.

Ayniqsa, sudning faol ishtiroki prinsipi bo‘yicha olimlar fikrlari (Y.Pudelka, L.Broker, V.Raymers, K.Dreksel, S.Karimov, O.Rogacheva, J.N.Nematov, M.U.Eshimbetov) va Germaniya, Latviya, Estoniya, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston qonunchiligi tahlil qilinib, u ma’muriy sud ish yurituvining asosiy prinsipi ekanligi ko‘rsatib berilgan. Bunda, ushbu prinsipning ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilib, uning o‘ziga xosligida muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar bilan munozaraga kirishilgan. Masalan, D.Boronboeva fikriga ko‘ra, ma’muriy nizodan boshqa nizolarni hal qilishda sud passiv pozitsiyani egallashi mumkin emas, sud dalilni talab etishda baribir protsessni boshqaradi. Dissertant sudning faol ishtiroki prinsipi nima uchun zarurligini tahlil qilish orqali bu fikrga qo‘shilib bo‘lmasligini ta’kidlagan. Xususan, taraflar taqdim etgan dalillar doirasida qaror qabul qiladigan iqtisodiy suddan farq qilgan holda, ma’muriy sud taraflar teng faol bo‘lish imkoniga ega emasligi bois haqiqatni aniqlash uchun o‘zi faol harakat qilib, surishtiruv olib boradi. Mazkur prinsip taraflar orasidagi faktik notenglik protsessual notenglikka aylanishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Shuningdek, ma’muriy organ tomonidan ommaviy manfaat to‘g‘ri ifodalanishini sud nazorat qilishi uchun ham bu prinsip zarur.

Amaliyotchilar ushbu prinsipni to‘g‘ri qo‘llashi juda muhim. Rivojlangan davlatlarda prinsiplar huquqiy qadriyat darajasiga ko‘tarilgani uchun, germaniyalik olim Y.Pudelka ularni qonunda to‘liq yozish zarur emas, deb hisoblaydi. Lekin, **postsovet davlatlarida** qonuniylik holati, mansabdor shaxslar bilimi, zamonaviy ma’muriy huquqning yangiligi, Yevropadagi ustun jihatlar mavjud emasligi sababli **har bir prinsipning mazmunini to‘liq ochib berish** to‘g‘ri bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qator **takliflar** ishlab chiqilgan.

Jumladan, MSIYutK 11-moddasi sudga ushbu moddada bayon etilgan aniq harakatlardan tashqari, ma’muriy sud ishini yuritish vazifalarini hal etishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajarish majburiyatini ham yuklagan. Mazkur vazifa umumiy bo‘lib, bir tomondan, sudga keng ko‘lamdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini berishi ijobiy jihat hisoblanadi, boshqa tomondan, aniq choralar ko‘rsatilmagani sababli tadbirkor himoyasi uchun hech qanday amaliy harakat qilmaslikka ham olib kelishi mumkin.

Estoniya, Ozarbayjon va Armaniston qonunchiligida ishtirokchilarning huquqiy bilimi kamligi oqibatida ularning manfaati buzilmasligi kerak, degan aniq xavfni oldini olish maqsadi bilan bu choralar batafsil yozilgan.

Shunga ko‘ra, mazkur prinsip mazmunini boyitish maqsadida sudning ma’muriy sud ish yurituvi vazifalarini hal qilishga qaratilgan boshqa harakatlarni bajarish majburiyatini saqlab qolgan holda, **sud tomonidan ishtirokchilarga ko‘maklashish mexanizmini yanada kengroq bayon etish** va MSIYutK 11-moddasini uchinchi qism bilan to‘ldirish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishning protsessual jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ushbu nizolar taalluqliligi, isbotlash majburiyati, hal qiluv qarori va uni ijroga qaratishga oid protsessual masalalar, suddagi ishlar va olimlar fikrlari tahlil qilingan (I.L.Burova, F.R.Gadjieva, R.Melnik, Y.Pudelka, Y.Deppe, J.N.Nematov, I.M.Say, I.M.Salimova, Sh.I.Shayzakov va boshqalar).

Dissertant olimlar fikrlarini o‘rganib, **ma’muriy sud ish yurituvida taalluqlilik** deganda ma’muriy organ va xususiy shaxs o‘rtasida kelib chiqqan ma’muriy nizoni ko‘rib chiqish va hal qilish vazifasining qaysi sud yoki ma’muriy organ vakolatiga kiritilganini tushunish kerakligini bildirgan.

Nizoning ma’muriy va iqtisodiy **sudga taalluqliligi** bo‘yicha ilmiy munozaraga kirishilgan. Xususan, I.M.Salimovaning fikriga ko‘ra, ma’muriy munosabatdan kelib chiqadigan iqtisodiy nizo tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizoni ham qamrab oladi.

J.N.Nematov esa asosiy talab mansabdor shaxs faoliyati yuzasidan nizolashish bo‘lsa, bunday ish ma’muriy sudlovga taalluqliligini bildirgan. Dissertant ushbu pozitsiyani qo‘llab-quvvatlab, ma’muriy munosabatdan kelib chiqadigan iqtisodiy nizoni aslida **ma’muriy organ o‘z vazifasini amalga oshirishi natijasida yuzaga kelgani sababli ma’muriy nizo**, deb hisoblash zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, ushbu ilmiy-nazariy yondashuvdan kelib chiqib, taalluqlilik amaliyotdagi ishlar orqali ochib berilgan va **takliflar** ishlab chiqilgan.

Birinchidan, hozirda iqtisodiy sudda ko‘rilayotgan **tadbirkorlikka oid ma’muriy nizolar ma’muriy sud vakolatiga o‘tkazilishi** lozim. Masalan, hokim qarori asosida “Shahodat kasb” korxonasi binosi buzilib, kelishuv bitimiga ko‘ra quruvchi “Grand qurilish plast” MChJ unga kompensatsiya to‘lashi belgilangan. Ikki tadbirkorning kelishuv bitimi iqtisodiy sud tomonidan, hokim qarori ma’muriy sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan, qaror oqibatidagi zararni undirish esa yana iqtisodiy sudda ko‘rilgan. Ushbu ikkita suddagi **barcha nizolarning ildizi**, ya’ni kelishuv bitimi, hokim qarori va yetkazilgan zararni undirish hokimning noqonuniy harakati oqibatida kelib chiqqanligi sababli barcha masalalar ma’muriy sudda ko‘rilishi zarur.

Statistika mazkur muammo shu davrda keng tarqalganligini ko‘rsatdi. Xususan, 2021-yilda ma’muriy sudda jami 15 143 ta ish ko‘rilgan bo‘lsa, qaror oqibatidagi zararni undirish uchun 4 028 ta ish bo‘yicha iqtisodiy va fuqarolik sudiga murojaat bo‘lgan, ya’ni 27 foiz ishda da’vogarlar odil sudlovning yakuniy natijasiga shu sudning o‘zida erishmagan. Mazkur taklif inobatga olinib, MSIYutK 27-moddasiga shikoyat bilan sababiy bog‘lanishdagi zararga oid talabni ma’muriy sudga taqdim etish tartibi kiritilgan.

Shuningdek, ma’muriy organ va tadbirkorning da’vogar va javobgar sifatidagi ishtiroki o‘rganilib, ma’muriy nizolarni iqtisodiy suddan ma’muriy sudga o‘tkazish haqidagi taklif amaliyot bilan ham asoslantirilgan. Hozirda ma’muriy organlar, masalan, bojxona organi va tadbirkorning bir xil, aytaylik, bojxona imtiyoziga oid nizosi da’vo subyekti tadbirkor bo‘lsa – ma’muriy sudda, bojxona organi bo‘lsa – iqtisodiy sudda ko‘rilmoqda.

2022-2023-yillar va 2024-yil 1-yarmida tadbirkor da’vogar, bojxona organi javobgar sifatida qatnashgan ishlar soni iqtisodiy sudda 47 tani, ma’muriy sudda 124 tani tashkil etgan. Xususan, da’vogar F.Djalalovning shikoyati Navoiy tumanlararo ma’muriy sudida, analogik misol – da’vogar bojxona organining arizasi Peshku tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rilgan. Chunki, qonunchilikda davlat organi ma’muriy sudda da’vogar bo‘lmasligi ko‘rsatilgan. Aslida, mazmunan bir xil bu ikkita ma’muriy nizo ma’muriy sudda ko‘rilishi kerak. Shu bois ma’muriy organ va tadbirkorning **vertikal nizolarini ma’muriy sudga o‘tkazish** bo‘yicha MSIYutK 26-moddasi va IPK 25-moddasiga o‘zgartirish kiritish, Germaniya modelidagi ma’muriy sud shakllangungacha MSIYutK 40-moddasida **ma’muriy organ ham da’vogar bo‘lishini belgilash** zarur. Estoniya va Gruziyada bu tajriba qabul qilingan.

Ikkinchidan, **ma’muriy aktni** haqiqiy emas deb topish bilan birga, uni **bekor qilishga oid shikoyat ham ma’muriy sudda ko‘rilishi** lozim. Chunki, qonunchilikka ko‘ra (masalan, Soliq kodeksi 230-modda), tadbirkor huquqini buzadigan ma’muriy aktni sudda bekor qilish ham mumkin bo‘lsada, MSIYutK 185-moddasida ularni faqat haqiqiy emas, deb topish belgilangan.

Vaholanki, har ikkala holat ham ma’muriy munosabatdan kelib chiqadi va hujjat yuridik kuchining tugatilishi haqida gap ketadi. Taklif asosli ekanligini **so‘rov** natijalari ham tasdiqlaydi. Xususan, 210 nafar sudya qatnashgan so‘rovda ularning 86 foizi ushbu vakolat ma’muriy sudda bo‘lishi, 14 foizi iqtisodiy sudda bo‘lishi haqida fikr bergan.

Uchinchidan, ba’zilari ma’muriy sudga, boshqalari iqtisodiy sudga taalluqli, tadbirkorlar ishtirokidagi **o‘zaro bog‘liq bir nechta talab birlashtirilishi va ular ma’muriy sudda ko‘rilishi** zarur. Bunda, iqtisodiy sudga taalluqli nizo deganda ikkita tadbirkorning iqtisodiy munosabati ko‘zda tutilmagan, balki nizoning bir tomoni ma’muriy organ bo‘lgan va nizo ma’muriy organ qarori ta’sirida kelib chiqqan holatlar nazarda tutilgan (yuqorida keltirilgan “Shahodat kasb” korxonasi bilan bogliq, ma’muriy va iqtisodiy sudda ko‘rilgan ishlarni bunga misol qilish mumkin).

2017-yilgacha ma’muriy sud bo‘lmaganligi uchun, bunday birlashtirilgan ishlar xo‘jalik sudida ko‘rilgan. Xo‘jalik protsessual kodeksga 2017-yil 12-aprelda o‘zgartish kiritilib, birlashtirilgan ishlarni iqtisodiy sudda hal qilish yo‘li tanlangan, 2018-yildagi IPK va MSIYutKda bir nechta talab birlashtirilmasligi belgilangani oqibatida esa tadbirkorlar ikki sud orasida ovora bo‘lib qolgan. Taraflar munosabatiga ma’muriy nizo elementi kirib kelganda, birlashtirilgan o‘zaro bog‘liq talablarni qonuniy hal qilish uchun ma’muriy sudda huquqiy mexanizmlar mavjud. Iqtisodiy suddagi teng taraflarga mo‘ljallangan protsessual tartiblar esa bunga yetarli bo‘lmaydi.

Dissertant keyingi paragrafda olimlarning (L.B.Xvan, M.V.Karasyova, V.A.Tupikov, D.I.Sheykin) **isbotlash majburiyati**ga oid fikrlarini o‘rganib, isbotlash majburiyatiga ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlarni to‘plash, taqdim etish va baholashga oid vazifalarning sud, da’vogar, javobgar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yuklatilishi, ular o‘rtasida taqsimlanishi, deb ta’rif beradi.

Ma’muriy protsessdagi **isbotlashning o‘ziga xosligi ma’muriy sud ish yurituvining vertikal mazmunidan kelib chiqadi** va bu **notenglik ishdagi haqiqatni aniqlashga to‘sqinlik qilmasligi maqsadini ko‘zlaydi**. Chunki, xususiy shaxsning isbotlashdagi imkoniyatlari, odatda, ma’muriy organga nisbatan kamroq bo‘lganligi sababli ma’muriy organga ko‘proq majburiyat yuklatiladi.

Tadqiqotchi fuqarolik protsessidan farqli ravishda, ma’muriy protsessda sud ishtirokchilar keltirgan va ikkinchi taraf nizolashmagan vajlarni haqiqiy holat sifatida tan olmasligi, balki asl vaziyatni aniqlash uchun barcha holatlarni o‘rganishi hamda buning uchun zarur protsessual harakatlarni amalga oshirishi kerakligini ta’kidlaydi.

Shu bois 2023-yil 26-apreldagi “Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–833-sonli Qonunga ko‘ra, MSIYutK 67-moddasida arizachi dalillarni yig‘ishda o‘z imkoniyati doirasida ishtirok etishi, isbotlash majburiyati ma’muriy organga yuklatilishi belgilangan.

Tadqiqot doirasida boshqa **takliflar** ham ishlab chiqilgan.

Xususan, ilg‘or tajribaga ko‘ra, **isbotlash majburiyati** asosan **javobgarga** yuklatiladi (masalan, ma’muriy akt qonuniyligi), ba’zilarida esa muayyan holatlarni **da’vogar** ham isbotlashi zarur. Xususan, **majburiyat yuklash** da’vosida da’vogar o‘ziga maqbul akt qabul qilishni asoslaydigan holatlarni, javobgar esa shu aktni qabul qilishni rad etganlik zaruratini isbotlashi kerak.

Germaniya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston qonunchiligida bunday normalar mavjud. Bu masala bo‘yicha Germaniya sudlari, xususan **Lyuneburg**, **Aaxen**, **Koblens**, **Karlsrue** ma’muriy sudlari amaliyoti tahlil qilingan. Shuni e’tiborga olgan holda, MSIYutKga **da’vo institutini kiritib**, har bir da’voda taraflardagi **isbotlash majburiyati taqsimotini va hajmini belgilab qo‘yish** zarur.

Shuningdek, ishdagi **ayrim holatlar isbotlanmay qolishining huquqiy oqibatlari** MSIYutKda belgilanmagan. Aslida hayotdagi turli vaziyatlar huquqdagi vositalar orqali aniqlanmagan hollarda sud qanday yo‘l tutishi kerakligi qonunda aniq ko‘rsatilishi kerak. L.Broker, Y.Pudelka, Y.Deppe, A.Boston, N.Pisarenko, A.Shkolik kabi olimlar tadqiqotlarida va Germaniya, Moldova, Qozog‘iston qonunchiligida bu masalada yakdil xulosaga kelingan.

Shu bois sud barcha dalillarni tadqiq etganidan keyin, muayyan holatni isbotlash imkoniyati tugagan deb hisoblasa, **isbotlanmaganlikning salbiy oqibati mazkur holatni isbotlash majburiyati yuklatilgan tarafning zimmasida bo‘lishi**ni qonunchilikda belgilash kerak.

Dissertant **sud hal qiluv qarori**ga oid masalani o‘rganib, munozaraga kirishadi (Y.Pudelka, M.Xendel, K.J.Gaziev, Sh.I.Shayzakov, M.M.Mamasiddiqov). Xususan, K.J.Gaziev fikriga ko‘ra, ma’muriy ish bo‘yicha sud qarori – davlat nomidan ma’muriy huquq to‘g‘risidagi nizo bo‘yicha qabul qilinadigan adolat aktidir. Bu manfaatdor shaxsning javobgarga da’vosini hal qiladigan, taraflar nizosini yo‘q qiladigan va ma’muriy ish yuritishda tomonlarning buzilgan yoki bahsli huquqini himoya qilish sifatida harakat qiladigan sud hujjatidir.

Ushbu ta’rifda hal qiluv qarori belgilari aks ettirilganini e’tirof etgan holda, undagi adolat akti tushunchasiga qo‘shilib bo‘lmaydi. **Adolat axloqiy-falsafiy kategoriya** bo‘lib, **huquqda ko‘proq qonuniylik va asoslilik tushunchalari**ni qo‘llash kerak. Chunki, sud qarori bilan nizodagi haqiqiy holat obyektiv sababga ko‘ra aniqlanmasligi ham mumkin, lekin sud qarori MSIYutK 154-moddasiga ko‘ra qonuniy va asoslangan bo‘lishi shart.

Hal qiluv qarori nizoni mohiyatan yo‘q qiladigan hujjat sifatidagi talqinga ham to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi, bu o‘rinda da’voni hal qiladigan hujjat tushunchasi qaror mazmunini ifodalash uchun yetarli. Chunki, sud hal qiluv qarori chiqargani bilan taraflarning nizosi yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki nizo mazmunini tashkil etuvchi da’vo yuridik jihatdan hal qilinadi.

Dissertant hal qiluv qarorining ko‘p jihatlari Yevropa davlatlari modeli bilan o‘zaro mosligini ta’kidlab, buni MSIYutK 158-moddasi va Germaniya Ma’muriy-protsessual kodeksi 117-paragrafidagi hal qiluv qarori mazmuniga oid talablar deyarli o‘xshash ekanligi orqali ko‘rsatib bergan.

Shunga ko‘ra, **sudning hal qiluv qarori**ga ma’muriy nizoni ko‘rish natijasi bo‘yicha davlat nomidan qonunga muvofiq va sud muhokamasida tekshirilgan dalillar asosida qabul qilingan, taraflarning da’vosini hal qiladigan huquqiy hujjat, deb ta’rif beriladi.

Hal qiluv qarorini o‘z vaqtida va to‘g‘ri ijroga qaratish muhim bo‘lib, qonuniy qaror bajarilmasa, uning amaliy ahamiyati bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, tadqiqotdagi **takliflar** inobatga olinib, ayrim muammolar hal qilingan.

Xususan, 2023-yilgacha ma’muriy sud qarori ijro uchun ma’muriy organga ijro varaqasi emas, balki oddiy xat orqali yuborilgan va bu mansabdor shaxslar ijroga mas’uliyatsizlik bilan qarashiga sabab bo‘lgan. 2022-yilda 4 477 ta ma’muriy sud qarorida davlat organiga qonunbuzilishni bartaraf etish yuklatilgan bo‘lib, ularning 809 tasi, ya’ni 18 foizining ijrosi haqida sudga axborot ham berilmagan (2021-yilda 4 385 ta qarorning 494 tasi, 11 foiz).

Ushbu tadqiqot natijalari ham inobatga olinib, 2023-yil 26-apreldagi O‘RQ–833-sonli Qonun bilan MSIYutK 122 va 276-moddalari o‘zgartirilib, ma’muriy sud qarorini mansabdor shaxslar bir oyda bajarmasa, bazaviy hisoblash miqdorining **5 baravaridan 10 baravarigacha jarima** belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rishni takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida huquqiy ta’sir choralarini sud orqali qo‘llash, keng tarqalgan ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish, tadbirkorlar huquqini himoya qilishning sud tartibini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Dissertant **tadbirkorga huquqiy ta’sir chorani sud orqali qo‘llash** bo‘yicha ilmiy qarashlarni (J.N.Nematov, M.U.Eshimbetov, I.M.Salimova, B.J.Abdullaev, A.A.Li, X.H.Soyipov, Y.Pudelka, I.M.Divin, G.V.Dikov) tahlil qilib, ma’muriy nizoning barcha belgilari mavjudligi bois ularni **iqtisodiy suddan ma’muriy sudga o‘tkazish**ni taklif qilgan. Chunki, bunda nizoning ma’muriy organ o‘z vakolatini amalga oshirishi oqibatida noteng taraflar orasida vujudga kelishi – eng muhim belgi bo‘lib, arizani ma’muriy organ yoki tadbirkor tashabbus qilishi uning mazmunini o‘zgartirmaydi.

Muallif G.V.Dikovning ma’muriy nizoda faqat xususiy shaxs da’vogar bo‘lishiga oid fikriga to‘liq qo‘shilmasdan, J.N.Nematov, M.U.Eshimbetov, I.M.Salimova, I.M.Divinning xulosalari bilan taklifini asoslantirgan.

So‘nggi yillarda iqtisodiy suddagi jami ishlarda huquqiy ta’sir choraga oid nizolar ulushi ko‘paymoqda. Ayniqsa, 2020-yilda bankdagi hisobvaraq bo‘yicha operatsiyani to‘xtatishga oid 8 726 ta ish hal qilinib, ishlarning 8,4 foizini tashkil etgan bo‘lsa, bu 2021-yilda 30,7 foiz (53 930 ta), 2022-yilda 56,5 foiz (156 873), 2023-yilda 50,2 foiz (136 529), 2024-yilda 68,3 foizgacha (297 345) oshgan. Iqtisodiy suddagi ishlarning yarmidan ko‘pini unga xos bo‘lmagan ma’muriy nizolar tashkil etishi esa mantiqan noto‘g‘ri. Chunki, huquqiy ta’sir choraga oid ishda nazorat organi arizachi bo‘lib, iqtisodiy sud ish yurituvining tenglikka asoslangan tabiati tadbirkorlar huquqini samarali himoya qilish imkonini bermaydi.

Bu masala **tadbirkor litsenziyasini to‘xtatish** bo‘yicha qiyosiy o‘rganilib, uning ma’muriy-huquqiy faoliyatdan kelib chiqqanligi (ya’ni, iqtisodiy sudda ko‘rish noto‘g‘riligi) ko‘rsatib berilgan. Hozir tadbirkor litsenziyasini o‘n kundan ko‘p muddatga to‘xtatish soliq organi arizasiga ko‘ra bilan iqtisodiy sudda ko‘riladi. Mazmunan bir xil boshqa holat, ya’ni soliq organi o‘zi litsenziyani o‘n kundan kam muddatga to‘xtatsa va tadbirkor norozi bo‘lsa, ish ma’muriy sudda ko‘riladi. Aslida ikkalasi ham ma’muriy-huquqiy faoliyat hisoblanadi.

Huquqiy ta’sir choraga oid ishlarni iqtisodiy suddan ma’muriy sudga o‘tkazish masalasida 210 nafar ma’muriy va iqtisodiy sud sudyalari o‘rtasida **so‘rov** o‘tkazilganda, ularning 76 foizi mazkur taklifni qo‘llab-quvvatlagan.

Navbatdagi paragrafda eng ko‘p tarqalgan ikki turkumdagi ishlar bo‘yicha so‘rov o‘tkazilganda, sudyalarning 66 foizi soliqqa, 53 foizi yerga oid nizolarni ko‘rsatgan. 6,9 ming tadbirkorlar o‘rtasidagi so‘rovda ham ularning 68 foizi soliqqa, 52 foizi yerga oid nizolar eng ko‘p muammoga sabab bo‘layotganini qayd etgan. Shu sababli keng tarqalgan bu nizolar ularni sudda ko‘rishni takomillashtirish nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Bunda, ma’muriy nizo deganda qaysi sudda ko‘rilishidan qat’i nazar, tadbirkor va ma’muriy organ o‘rtasidagi barcha vertikal nizolar asos qilib olingan.

Dissertant statistikani ham tahlil qilib, ma’muriy va iqtisodiy suddagi **yerga oid ma’muriy nizolar ko‘payib borayotganiga** e’tibor qaratgan. Jumladan, ma’muriy sudda ko‘rilgan ishlar 2 barobardan ko‘p (2020-yilda 1 937 ta, 2022-yilda 3 965 ta), iqtisodiy sudda 1,5 barobardan ziyod (2020-yilda 1 047 ta, 2022-yilda 1 580 ta) ortgan. 2023-yilda esa ma’muriy suddagi bunday nizolar 3 159 tani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaygan.

Ushbu nizolarni o‘rganishda tadqiqotdagi ilmiy-nazariy xulosalar amaliyotdagi ishlar bilan asoslantirilib, qator **takliflar** tayyorlangan.

Prezident Farmoni bilan taqiqlangan bo‘lsada, 2022-2023-yillar va 2024-yil 1-yarmida fermer yerini hokimlik zaxirasiga noqonuniy qaytarish bo‘yicha Sirdaryo viloyati sudlarida 61 ta, Toshkent viloyatida 51 ta, Jizzaxda 47 ta, Andijonda 40 ta ish ko‘rilgan. Shuning uchun, Yer kodeksi 36-moddasiga **ma’muriy organ tomonidan asos hujjatni bekor qilish orqali yer huquqini tugatishga barham berish** bo‘yicha o‘zgartirish kiritish zarur.

Yer kodeksi 36-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxs tugatilganda, yerga bo‘lgan huquq bekor qilinadi. Lekin, bu holat tadbirkorning auksion orqali sotib olgan yeriga tatbiq etilmasligi lozim. Shu bois bu moddada **tadbirkorning qishloq xo‘jaligiga kirmaydigan yeriga nisbatan huquqi muassislariga o‘tishini belgilash** lozim. Muammo sud ish yurituviga bevosita taalluqli bo‘lmasada, uning hal etilishi sudda nizolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlar ishtirokidagi nizolar tahlili ko‘rsatmoqdaki, yer va mulk huquqiga asos bo‘lgan hujjatlarning o‘zgaruvchanligi investitsiyaviy muhitga xavf soladi. Investorlar uchun muhim bo‘lgan **Mulk huquqlarini himoya qilish xalqaro indeksi**da O‘zbekistonning o‘rni haligacha baholanmagan. Jahon odil sudlov tashkilotining 2024-yildagi indeksida esa O‘zbekiston yetarli kompensatsiyasiz mulkni olib qo‘ymaslik indikatorida **142 ta davlat ichida 140-o‘rinda** turibdi. Shunga ko‘ra, xalqaro reytinglardagi o‘rnimizni yaxshilash bo‘yicha **xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish** lozim.

Muallif soliqqa oid ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish bo‘yicha tahlilni davom ettirib, Oliy sud va Soliq qo‘mitasi statistikasini taqqoslagan holda **tadbirkorlarning soliqqa oid nizolari** ma’muriy nizolarning katta qismini tashkil etayotganini ko‘rsatib bergan va qator **takliflar** tayyorlagan.

Jumladan, Soliq kodeksi 231-moddasiga ko‘ra, soliq organining sayyor tekshiruv va soliq auditi bo‘yicha qarori ustidan sudga shikoyat qilish faqat yuqori soliq organiga murojaat qilingandan keyin mumkin bo‘lgan. Oqibatda, **tadbirkorlarning sud himoyasiga bo‘lgan huquqi**ga putur yetkazib kelingan edi. Shu sababli 2024-yil 20-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ–910-sonli Qonun bilan mazkur **cheklov bekor qilingan**.

Soliq organlari qonunni noto‘g‘ri qo‘llashi oqibatida tadbirkorlar zarar ko‘rayotgani va masala nizoli ekanligidan kelib chiqib, bitimni **ko‘zbo‘yamachilik vaji bilan haqiqiy emas deb topish**ni barcha hollarda soliq organi da’vosi bo‘yicha **sud orqali amalga oshirish taklifi** ilgari surilgan. Soliq qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, tadbirkor norozi bo‘lsada, 2021-yilda 525 ta holatda shu chora sudni chetlab o‘tib qo‘llanilgan. Masalan, Navoiy viloyat soliq boshqarmasi bitim ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilganini isbotlamasdan, asossiz inkasso qo‘ygani sababli “Janubsanoatmontaj” AJga sud qarori bilan 450 million so‘m qo‘shilgan qiymat solig‘i qaytarilgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston qonunchiligida nizoli masalalar bo‘yicha asosan sudda to‘xtamga kelish modeli tanlangan.

Yana bir masala – 2023-yil 20-fevraldagi “Sudlar tomonidan soliq qonunchiligini qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 4-sonli **Plenum qarori** 22-bandidagi “yuqori soliq organi shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirsa, sud uni ishga jalb qilmasligi”ga oid **tushuntirish qonunchilikka zid**. Chunki, kimni ishga jalb qilish nizodagi aniq holatlardan kelib chiqib, sud tomonidan hal qilinishi lozim. Bu taklifning asosliligini sudyalar ham tasdiqlagan. Xususan, 24 nafar ma’muriy sud sudyalaridan ko‘rsatilgan holatda “yuqori soliq organi vakilini ishga jalb qilasizmi?”, deb so‘ralganda, 96 foizi jalb qilishi, 4 foizi jalb qilmasligi haqida fikr bildirgan. Shunga ko‘ra, mazkur tushuntirishni bekor qilish tavsiya etilgan.

Dissertant **tadbirkorlar huquqini himoya qilishning sud tartibini takomillashtirish istiqbollari** bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni (P.Kvosta, K.Xinterberger, I.A.Xamedov, M.U.Eshimbetov, A.B.Gabbasov, Sh.B.Bakaev) tahlil qilib, tadqiqotdagi takliflar amalga oshirilishi natijasida sud tartibida tashkiliy-huquqiy, amaliy o‘zgarishlar, transformatsiya jarayoni yuz berishini ta’kidlagan. Xususan, 2017-2023-yillarda ma’muriy sud ish yurituvi instituti qisman (ma’muriy sud tuzilgani, kodeks qabul qilinib, umumiy masalalar belgilangani) joriy etilib, qonunchilikda uning barcha o‘ziga xosliklarini aks ettirish ishlari davom etayotgani ko‘rsatib berilgan.

Umuman, tadqiqotchi O‘zbekistonda postsovet huquqi va Germaniya huquqi elementlaridan tarkib topgan **“aralash model”** shakllanmoqda, degan fikrni ilgari suradi. Mazkur bosqichda qandaydir huquqiy muammo yuzaga kelganda, faqat shu muammoning o‘zini tezda hal qilish emas, balki kompleks yechim topish kerakligi haqidagi konseptual yondashuv taklif etiladi. Chunki, bunday tezkor choralar – qisqa muddatda natija bergandek bo‘lib ko‘rinsada, aslida islohotdan ko‘zlangan pirovard maqsadga erishish muddatini aksincha uzaytiradi yoki erishish imkoniyatlarini yo‘qqa chiqaradi. Yuqoridagi omillardan kelib chiqib, **ma’muriy sud ish yurituviga oid qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi**ni ishlab chiqish zarurati asoslantirilgan.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqoti natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar, qonunchilikka takliflar va amaliy tavsiyalar ilgari surildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Tadbirkorlar huquqini himoya qilishga oid ma’muriy nizoning **mualliflik ta’rifi** ishlab chiqilib, o‘zaro teng bo‘lmagan ishtirokchilar, ya’ni tadbirkorlar va ma’muriy organlar, hokimiyat vakolatiga ega boshqa subyektlar o‘rtasida ularning qarori (mansabdor shaxs harakati, harakatsizligi), hokimiyat vakolatini boshqacha amalga oshirishi oqibatida yuzaga keladigan, ma’muriy va boshqa ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizo tushunilishi asoslantirildi.

2. Tadbirkorlar huquqini himoya qilishga oid **ma’muriy nizoning** subyektlar, munosabat xarakteri, soha va shikoyat predmeti bilan bog‘liq **o‘ziga xos belgilarga ega ekanligi** asoslantirildi.

3. Bunday **nizolarning** quyidagi **turlari** mavjudligi ko‘rsatib berildi:

– tadbirkorlar huquqiga doir individual ma’muriy aktlar (mansabdor shaxs harakati, harakatsizligi) yuzasidan kelib chiqadigan nizolar;

– idoraviy normativ-huquqiy hujjat qabul qiladigan organning tadbirkorlar huquqiga oid qarorlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar;

– ma’muriy organlarning investitsiya shartnomasi bilan bog‘liq qarorlari va harakatlariga (harakatsizligiga) doir investitsiya nizolari;

– raqobat munosabatidan kelib chiqadigan ommaviy xarakterdagi nizolar;

– ma’muriy organ va tadbirkorlar o‘rtasida ushbu organlar qarori, vakolatini boshqacha amalga oshirishi oqibatida yuzaga keladigan, ma’muriy va ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan boshqa nizolar.

4. Ma’muriy huquqbuzarlik va **ma’muriy nizo**ning jamiyatdagi konfliktli holatlar tizimidagi o‘rni ilmiy-nazariy tahlil qilinib, delikt ziddiyat va ma’muriy nizoning farq qiladigan jihatlari tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy ishlar nuqtayi nazaridan ochib berildi.

5. Ma’muriy nizo tushunchasidan kelib chiqib, **davlat korxonasi** va davlat ishtirokidagi **xo‘jalik jamiyati** (masalan, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ) tadbirkorga qarshi taraf sifatida boshqaruv vakolatiga ega bo‘lib harakat qilganda, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli boshqa tashkilot sifatida ma’muriy nizo subyekti bo‘lishi asoslantirildi.

6. Ma’muriy nizo turlarini o‘rganish natijasiga ko‘ra, **investitsiya va raqobatga oid nizolar**ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Oliy sudda va viloyat ma’muriy sudida ko‘rish haqidagi normani bekor qilish zarurligi asoslantirildi. Bunda, yetarli asossiz ayrim nizolar uchun alohida instansiyani belgilash odil sudlov sifatini instansiyaga qarab tabaqalash ekanligidan kelib chiqildi.

7. Sudning faol ishtiroki prinsipi ilmiy-nazariy o‘rganilib, ma’muriy sud ish yurituvi mazmun-mohiyatini belgilab berishi va iqtisodiy protsessdagi tortishuv prinsipidan farqli jihatlari ko‘rsatib berildi.

Jumladan, **tortishuv** iqtisodiy protsessda asosiy prinsip hisoblanib, klassik tarzda namoyon bo‘lishi, ma’muriy sud ish yurituvida esa **sudning faol ishtiroki** asosiy prinsip hisoblanib, uning **ta’sirida mazmuni qisman o‘zgargan tortishuv prinsipi ham amal qilishi** haqida xulosaga kelindi.

8. O‘zbekistonda ma’muriy sud ish yurituviga oid qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati asoslantirilib, tadqiqotdagi takliflarni mukammal tayyorgarlikdan keyin, ya’ni qonunchilikni yangilash, tashkiliy masalalarni hal qilish, kadrlarni o‘qitish va malakasini oshirish ishlari qilingandan so‘ng, konsepsiya asosida bosqichma-bosqich amalga oshirish lozimligi ko‘rsatib berildi. Xususan, tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy ishlarni, masalan, huquqiy ta’sir chora qo‘llashga oid ishlarni iqtisodiy suddan **ma’muriy sudga**, jiddiy huquqiy oqibat keltirib chiqarmaydigan turlarini **ma’muriy organga o‘tkazish tendensiyasi** davom etishi zarurligi haqida xulosaga kelindi.

9. Tadqiqotdagi takliflarni amalga oshirish bilan hamohang ravishda **ma’muriy sud va iqtisodiy sudga nisbatan yondashuvlarni konseptual jihatdan o‘zgartirish** lozimligi, jumladan tadbirkorlarning ma’muriy organlar bilan bo‘ladigan barcha ommaviy nizolarini ma’muriy sudda ko‘rish, iqtisodiy sudda esa faqat tadbirkorlar o‘rtasidagi iqtisodiy (fuqarolik) nizolarni hal qilish zarurligi haqida ilmiy-nazariy xulosaga kelindi.

10. Ma’muriy da’vo turlaridan kelib chiqib, ma’muriy aktni haqiqiy emas deb topish, bekor qilishga oid da’volarda hal qiluv qarori to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijro bo‘lishi, ma’muriy akt qabul qilish majburiyatini yuklash, muayyan harakatni bajarish (bajarishdan tiyilish) majburiyatini yuklash va tan olish haqidagi da’volarda esa **hal qiluv qarori ijrosini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish, jumladan sud jarimasi kiritilgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirib berildi**.

11. O‘zbekistonda tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish **tarixini uch davrga bo‘lib o‘rganish** haqida xulosaga kelindi:

– sovet davriga qadar ushbu ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish institutiga o‘xshash bo‘lgan institutlarning yuzaga kelishi bosqichi;

– sovet davrida ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish instituti ayrim elementlarining shakllanishi bosqichi;

– mustaqillik davrida ma’muriy nizolarni sudda ko‘rish institutining rivojlanishi bosqichi.

Mustaqillik yillarida mazkur nizolarni sudda ko‘rish tarixi **ikkita davr**ga, ya’ni ularni **1991-2016-yillarda** xo‘jalik sudlarida, **2017-yildan** boshlab ixtisoslashgan ma’muriy sudlarda ko‘rib chiqish davriga bo‘lib o‘rganildi.

II. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar

12. Sudning faol ishtiroki prinsipi mazmunini kengaytirib, **MSIYutK 11-moddasi**ni “sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga kamchiliklarni bartaraf etish, o‘z talablarini aniqlashtirish, da’vo turini o‘ziga manfaatli da’voga almashtirish, yetarli bo‘lmagan ma’lumotlarni berishda, shuningdek ish holatlarini aniqlash va baholash uchun ahamiyatga ega materiallarni taqdim etishda ko‘maklashishga majbur. Bunda, sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy tajribasizligi sababli zarur dalillar taqdim etilmay qolishiga, ularning haqiqiy xohish-irodasi noto‘g‘ri talqin etilishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishi shart”, degan tahrirdagi uchinchi qism bilan to‘ldirish taklif etildi. Bunda, sudning ma’muriy sud ish yurituvi vazifalarini hal qilishga doir boshqa harakatlarni bajarish majburiyati saqlanib qoladi.

13. MSIYutK 11-moddasida sudning faol ishtiroki prinsipiga zid bo‘lmagan mazmundagi taraflarning tortishuvi prinsipini ham belgilash yoki tortishuvning mazmunini boshqa shaklda saqlab qolish, shuningdek bu moddaga sudning faol ishtiroki prinsipini sudyaning xolisligi asosida amalga oshirishga doir o‘zgartirish kiritish taklif etildi.

14. Davlat organi va tadbirkor o‘rtasidagi ushbu organ o‘z vazifalarini amalga oshirishi bilan bog‘liq **barcha ma’muriy nizolar iqtisodiy sudda emas, balki ma’muriy sudda ko‘rilishi** zarurligi asoslantirilib, MSIYutK va IPKning qator moddalariga o‘zgartirish kiritish taklif etildi. Xususan:

14.1) **tadbirkorning shikoyat bilan sababiy bog‘lanishdagi zararga oid talabi** ma’muriy nizoning tarkibiy qismi ekanligi ko‘rsatilib, MSIYutK 27-moddasida bu talabni ma’muriy sudga taqdim etish tartibi belgilanganligi asoslantirildi. Mazkur zarar bilan birga, barcha huquqiy oqibatlarni hal qilish vakolatini ham ma’muriy sudga o‘tkazish zarurligi ko‘rsatilib, **MSIYutK 27-moddasi uchinchi qismini** “arizachining ushbu moddada ko‘rsatilgan ariza (shikoyat) bilan bir qatorda mazkur talablarga sababiy bog‘lanishda bo‘lgan zararlarning o‘rnini qoplash va boshqa huquqiy oqibatlarga oid talablari ham ma’muriy sudda ko‘rib chiqilishi shart”, degan tahrirda bayon etish va to‘rtinchi qismini bekor qilish taklif etildi;

14.2) ma’muriy organ va tadbirkorning **da’vogar va javobgar sifatidagi ishtiroki** sud amaliyoti orqali o‘rganilib, ularning **vertikal nizolarini ma’muriy sud vakolatiga o‘tkazish** bo‘yicha MSIYutK 26-moddasi va IPK 25-moddasiga o‘zgartirish kiritish, shuningdek MSIYutK 40-moddasida ma’muriy organ ham da’vogar bo‘lishi mumkinligini belgilash asoslantirildi;

14.3) MSIYutK 27-moddasi va IPK 26-moddasiga o‘zgartirishlar kiritilib, tadbirkorga nisbatan ommaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talab bo‘yicha so‘zsiz undiriladigan ijro hujjati ustidan shikoyat qilishga doir ishlar ma’muriy sudga taalluqliligi belgilangani asoslantirildi.

15. MSIYutK 185-moddasiga o‘zgartirish kiritib, **ma’muriy aktni haqiqiy emas deb topish** haqidagi shikoyat bilan birga uni **bekor qilish** to‘g‘risidagi da’vo ham ma’muriy sudda ko‘rilishini belgilash taklif etildi.

16. MSIYutK 26-moddasi va IPK 25-moddasiga o‘zgartirish kiritib, “ba’zilari ma’muriy sudga, boshqalari iqtisodiy sudga taalluqli, ya’ni ma’muriy munosabat aralashgan va o‘zaro bog‘liq talablar **birlashtirilishi va barchasi ma’muriy sudda ko‘rilishi**”ni belgilash zarurligi asoslantirildi. Bunda, iqtisodiy sudga taalluqli nizo deganda ikkita tadbirkorning iqtisodiy munosabati ko‘zda tutilmagan, balki nizoning bir tomoni ma’muriy organ bo‘lgan va nizo ma’muriy organ qarori ta’sirida kelib chiqqan holatlar nazarda tutilgan.

17. MSIYutK 67-moddasiga o‘zgartirish kiritilib, arizachi dalilni yig‘ishda o‘z imkoniyati doirasida ishtirok etishi, isbotlash majburiyati qarori yuzasidan nizolashilayotgan ma’muriy organ zimmasiga yuklatilishi belgilangani asoslantirildi.

18. Isbotlash majburiyati taqsimoti **ma’muriy da’vo turi**ga bog‘liq ekanligi o‘rganilib, haqiqiy emas deb topish, bekor qilish, ma’muriy akt qabul qilish majburiyatini yuklash, muayyan harakatni bajarish (bajarishdan tiyilish) majburiyatini yuklash va tan olish haqidagi da’vo turlarini kiritish hamda har birida taraflardagi **isbotlash yuki hajmini belgilash** taklif etildi.

19. Ayrim holatlar isbotlanmay qolishining oqibati belgilanmagani sababli MSIYutK 67-moddasini “sud barcha dalillarni tadqiq etganidan va o‘ziga bog‘liq barcha vakolatlardan foydalanganidan keyin, muayyan holatni isbotlash imkoniyati tugagan deb hisoblasa, isbotlanmaganlikning salbiy oqibati bu holatni isbotlash majburiyati yuklatilgan tarafning zimmasida bo‘ladi”, degan tahrirdagi beshinchi qism bilan to‘ldirish taklif etildi.

20. Ayrim bo‘shliqlar mavjudligi sababli **FPKning ma’muriy sud ish yurituvi mazmuniga zid bo‘lmagan normalarini qo‘llash mumkinligini MSIYutKda belgilash** yoki FPKda mavjud va ma’muriy sud ish yurituvida qo‘llash zarur qoidalarni MSIYutKga ham kiritish lozimligi asoslantirib berildi.

21. Tadbirkorlarga **huquqiy ta’sir choralarini sud orqali qo‘llash ommaviy munosabatlardan kelib chiqqanligi** va bu holatda ma’muriy nizoning barcha belgilari mavjudligi sababli MSIYutK va IPKga ularni ma’muriy sud vakolatiga o‘tkazishga oid normalarni kiritish taklif etildi.

22. Dastlabki bosqichda **bank hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyani to‘xtatib turish**ga oid huquqiy ta’sir chorasini mansabdor shaxslar mas’uliyatini oshirgan holda, ma’muriy organ vakolatiga o‘tkazish taklif etildi.

23. Yerga bo‘lgan huquqni ma’muriy organning o‘zi tomonidan ushbu huquq uchun asos hisoblangan hujjatlarni bekor qilish orqali tugatish amaliyotiga chek qo‘yish bo‘yicha Yer kodeksi 36-moddasiga o‘zgartirish kiritish zarurligi ko‘rsatib berildi.

Jumladan, 2022-2023-yillar va 2024-yil 1-yarmida sudlarda fermer yerini hokimlik zaxirasiga noqonuniy qaytarish bilan bog‘liq 372 ta ish ko‘rilgan bo‘lib, tadbirkorlarning mulk huquqi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida ma’muriy organlarning ushbu vakolatini qonun bilan bekor qilish kerak.

24. Ortiqcha nizolarning oldini olish uchun Yer kodeksi 36-moddasiga o‘zgartirish kiritib, **tugatilgan yuridik shaxsning qishloq xo‘jaligiga kirmaydigan yeriga nisbatan huquqi** uning muassislariga o‘tishini ko‘zda tutish taklif etildi.

Chunki, yuridik shaxs tugatilishi unga tegishli mulkning egasiz bo‘lishini va davlat zaxirasiga olinishini anglatmaydi.

25. Soliq kodeksi 231-moddasiga o‘zgartirish kiritib, tadbirkorning soliq organi ustidan **sudga shikoyat qilishidagi cheklov** bekor qilingani asoslantirildi.

Bunda, soliq organi sudga chiqmasdan tadbirkorga chora ko‘rish vakolatiga ega bo‘lgan holatlarda uning qarori ustidan sudga shikoyat huquqi cheklanmasligi kerak, degan nuqtayi nazardan kelib chiqildi.

26. Soliq organlari qonunni noto‘g‘ri qo‘llashi oqibatida tadbirkorlar zarar ko‘rayotganligi va masala nizoli ekanligidan kelib chiqib, Soliq kodeksining 14-moddasiga o‘zgartirish kiritib, tadbirkorning bitimini **ko‘zbo‘yamachilik (qalbakiligi) vaji bilan haqiqiy emas deb topish va pul mablag‘ini undirib olish**ni barcha holatlarda soliq organi arizasi bo‘yicha sud orqali amalga oshirish lozimligi asoslantirildi.

III. Sud amaliyotini takomillashtirish, sudyalar va ma’muriy organlar xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar

27. Oliy sud Plenumi tomonidan tadbirkorlar ishtirokidagi yer, soliq va boshqa ma’muriy nizolarni ko‘rib chiqishda yagona amaliyotni shakllantirish bo‘yicha **tushuntirishlar berish** tavsiya etildi.

Bunda, ma’muriy nizolar tushunchasi, belgilari va turlari mazmunini to‘g‘ri yetkazish, sudning faol ishtiroki prinsipini amaliyotda keng va to‘g‘ri qo‘llash masalalariga alohida e’tibor berish zarurligi ko‘rsatib berildi.

28. Oliy sud Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 4-sonli **qarori 22-bandi**dagi “yuqori soliq organi shikoyatni qanoatlantirmasdan qoldirish haqida qaror qabul qilganda, sud uni ishga jalb qilmasligi” haqidagi tushuntirishni qonunchilikka nomuvofiqligi sababli chiqarib tashlash tavsiya etildi.

29. Sudyalar oliy maktabi, Kadastr agentligi, Soliq qo‘mitasi tomonidan yer, soliq va boshqa ma’muriy nizolarni qonuniy hal qilishga qaratilgan **idoralararo malaka oshirish kurslarini tashkil etish** zarurati ochib berildi.

30. Tadbirkorlar ishtirokidagi yerga oid ma’muriy nizolar sabablarini (mulk huquqiga asos hujjatlar o‘zgaruvchanligi, byurokratiya kabi) o‘rganib, O‘zbekistonning **xalqaro reytinglar**dagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha **xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish** taklif etildi. Jumladan, O‘zbekistonning Mulk huquqlarini himoya qilish xalqaro indeksidagi o‘rnini baholash va boshqa reytinglardagi o‘rnini yaxshilash choralarini ko‘rish zarur.

31. Hal qiluv qarorlarini rasmiylashtirishda til qoidalariga amal qilinmasligi, yetarlicha asoslantirilmasligi, ma’muriy organga uning vakolatiga kirmaydigan majburiyat yuklatilishi va qarorlar bekor qilinishi sabablarini o‘rganib, **sudyalar uchun seminarlar tashkil qilish, ilmiy-amaliy qo‘llanmalar tayyorlash** tavsiya etildi.

**SCIENTIFIC COUNCIL № DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02
FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW

MADRIMOV KHUSHNUD KUVANDIKOVICH

IMPROVEMENT OF JUDICIAL TRIAL OF ADMINISTRATIVE DISPUTES RELATED TO PROTECTION OF THE RIGHTS AND LEGAL INTERESTS OF BUSINESS ENTITIES IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

12.00.02 – Constitutional Law. Administrative Law.
Financial and Customs Law

Doctoral (PhD) dissertation abstract on legal sciences

Tashkent – 2025

The theme of the doctoral dissertation (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of higher education, science and innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.1.PhD/Yu 920.

The dissertation is prepared at Tashkent State University of Law.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website of the Scientific Council (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) and Information educational portal "ZiyoNET" (www.ziyonet.uz).

Scientific Supervisor:	**Nematov Jurabek Nematilloyevich** Doctor of Science in Law, Professor
Official opponents:	**Otakhonov Foziljon Khaydarovich** Doctor of Science in Law, Professor
	Shayzakov Shodiyar Ibragimovich Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences, Associate Professor
The leading organization:	**University of Public Security of the Republic of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will be held on July 5, 2025 at 10:00 at the Session of the Scientific Council № DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 at the Tashkent State University of Law (Address: 100047, Sayilgoh street, 35, Tashkent city. Phone: (998 71) 233-66-36; fax: (998 71) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

The doctoral dissertation (PhD) is available at the Information Resource Center of Tashkent State University of Law (registered under № 1404), (Address: 100047, Amir Temur street, 13, Tashkent city. Phone: (998 71) 233-66-36).

The abstract of the dissertation was distributed on June 23, 2025.
(Registry protocol № 26 on June 23, 2025).

R.R.Khakimov
Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

F.B.Makhmudov
Scientific Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences, Associate Professor

I.R.Bekov
Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

The actuality and relevance of the dissertation theme. The rule of law has been declining in the world in recent years. In particular, according to the 2023 report of the World Justice Project, "the rule of law has been in recession since 2016, with a decline observed in 78 percent of countries."[1] Another authoritative organization, the Economist Intelligence Unit, also noted in its 2022 report that "more than half of the 167 countries studied have seen a decline or stagnation in the level of democracy. In particular, the indicator of the limitation of the powers of state bodies has decreased in 74 percent of countries over the past seven years"[2] - this means that judicial control, along with other types of control over the executive branch, has weakened, and this indicates the relevance of the research theme on an international scale. This negative trend continued in 2024. At the same time, this report highlights Uzbekistan as one of the five countries that have been strengthening the rule of law since 2016 and are most likely to resist these global trends in the long term. This requires a logical continuation of our reforms in the field of administrative judicial proceedings and the consistent introduction of advanced practices and standards.

In the world, special attention is paid to conducting research on issues such as increasing the role of legal institutions such as courts and quasi-judicial bodies, strengthening judicial control over executive bodies, and clarifying the powers of administrative courts and administrative bodies. In particular, the active participation of the court, jurisdiction, the burden of proof, administrative claims, and various issues related to court decisions are being studied as important areas of research.[3]

Statistics on administrative disputes involving entrepreneurs in our country indicate the need to study this issue separately. In particular, the total number of public disputes tried in the administrative court in 2024 (15,369) increased by 2 % compared to 2020 (15,066), while the number of cases tried on the basis of an entrepreneurs' complaints increased from 1,391 in 2020 to 4,757 in 2024, i.e. by 3.4 times (3,366).[4] An analysis of the past 6 years of practice has shown that problems are arising due to the incomplete implementation of administrative court proceedings. In particular, due to the fact that the concept of an administrative dispute has not been developed, the specifics of an administrative dispute have not been taken into account in the application, the principles of administrative court proceedings and the circle of participants, and the institution of the claim have not been fully determined, mass disputes involving entrepreneurs are being considered in the administrative court together with the economic court. In fact, the administrative court is a new institution, and the emergence of problems was predicted. This situation is also explained by the lack of in-depth scientific research in 2016-2017, which would showcase solutions to problems on the border of practice and theory. Taking into account the above circumstances, in his speech on November 6, 2021, President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev

[1] worldjucticeproject.org/news/wjp-rule-law-index-2023-global-press-release.
[2] eiu.com/n/compaigns/democracy-index-2022/.
[3] These studies are provided in the list of references of the dissertation.
[4] stat.sud.uz/file/2024/31.01/site%20administrative%202023%20annual.pdf.

gave an instruction to "improve the activities of administrative courts"[1]. The fact that the "Uzbekistan-2030" strategy[2] sets the establishment of effective judicial control over state bodies as a priority goal also increases the relevance of the theme. Another aspect is that during the Soviet period and even after it, administrative disputes involving entrepreneurs were studied less. Because in a planned economy, there was no private entrepreneurship, and only after the introduction of market relations did the issue of protecting their rights from administrative bodies become relevant.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Administrative procedure code of the Republic of Uzbekistan, the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PD No.4850 dated October 21, 2016 "On measures to further reform the judicial system, strengthen guarantees for reliable protection of the rights and freedoms of citizens", PD No.11 dated January 16, 2023 "On additional measures to further expand opportunities for access to justice and increase the efficiency of the activities of courts", PD No.107 dated January 29, 2022 "On measures to ensure effective protection of the rights of citizens and business entities in relations with state bodies and further increase public confidence in the courts", PD No.33 dated January 30, 2025 "On additional measures to introduce modern mechanisms for judicial protection of the rights of citizens and business entities" and other legislative acts on the subject dissertation work serves to a certain extent to its implementation.

The dependence of the research on the priority areas of development of science and technologies in the country. The dissertation was carried out on the basis of the priority direction of the republican science and technology development "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of a society of information and a democratic state".

The extent of the research of the research problem. Issues of administrative disputes involving entrepreneurs have been studied less by our national scholars. Existing analysis are mainly based on a general approach.

Uzbek scholars E.T.Khojiyev, G.T.Khakimov, Zh.N.Nematov, L.B.Khvan, A.A.Lee, I.A.Khamedov, I.M.Tsai, Sh.I.Shayzakov, D.R.Artikov, M.U.Eshimbetov, and S.B.Bakaev have conducted scientific research on various aspects of administrative justice. In particular, E.T.Khojiyev conducted research and studied administrative process, administrative proceedings, G.T.Khakimov, I.A.Khamedov, I.M.Tsai studied development of administrative justice, administrative process, J.N.Nematov studied administrative act, relevance of administrative dispute, L.B.Khvan studied administrative act, history of administrative justice and principles, A.A. Lee studied authorization procedures, Sh.I.Shayzakov studied participation of the prosecutor in administrative court proceedings, D.R.Artikov studied hearing cases related to departmental normative legal documents in court, M.U.Eshimbetov studied hearing cases arising from the decision of an administrative body in court, Sh.B.Bakaev studied organizational and legal basis for the activities of administrative courts.

[1] president.uz/uz/lists/view/4743
[2] National database of legislation, lex.uz/docs/6600413.

In the CIS, some aspects of the subject were studied by E.B.Luparev, Yu.N.Starilov, A.B.Zelentsov, V.V.Skitovich, N.G.Kiper, A.N.Artamonov, N.V.Sukhareva, O.V.Chumakova, I.M.Divin, S.Karimov, A.B.Gabbasov, S.I.Ibragimov and other scholars, while in foreign countries Y.Pudelka, L.Broker, W.Reimers, Y.Deppe, P.Kwosta, K.Hinterberger, F.Hufen, K.Drexel, M.P.Sinh, J-M.Ponte, Y.Paujayte-Kulvinskene, V.Kruminya, R.Melnik and others conducted research.

However, the scientific problems, legislation, and practice of the period after the establishment of the administrative court in Uzbekistan have not been studied as a monographic research work from the point of view of improving the consideration of administrative disputes involving entrepreneurs and effectively introducing advanced foreign experience into the process of considering these disputes.

Relation of the dissertation's theme to the scientific-research work of higher education institution where it was implemented. The dissertation work was completed within the framework of the fundamental project of the research plan of Tashkent State University of Law on the topic of "Main directions of further liberalization of public administration in the context of deepening democratic reforms" (2021-2023).

